

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KIMYO FANIDAN MALAKA SINОВI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi kimyo fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezoni va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning kimyo fani bo‘yicha nazariy bilimlari, **amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini** kompleks baholash.

II. Me’yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi

1. Umumiy kimyo
2. Anorganik kimyo
3. Organik kimyo

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
--------------------	---------------------------	---------------------	-------------------	---------------------

Umumiy kimyo	Kimyoning asosiy tushunchalari va qonunlari	Kimyoning asosiy tushunchalari va qonunlarini hamda nazariyalarini bilish, tushunish, kimyoviy kinetika, eritmalar va eritmada boradigan jarayonlarni bilish, tushunish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari (elektroliz), ularning tenglamalarini tuzishni bilish va shular asosida misol va masalalar yecha olish;	37,5	15
Anorganik kimyo Laboratoriya mashg'ulotlari	Anorganik moddalarning eng muhim sinflari	Anorganik moddalarning eng muhim sinflari, metallar va metallmaslarning xossalarni farqlash, tushunish va shular asosida misol va masalalar yecha olish;	50	20
3. Organik kimyo	Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi va undan kelib chiqadigan xulosalar	Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi va undan kelib chiqadigan xulosalarni bilish, organik birikmalarning sinflarini, xossalarni, qo'llanilishini tushuntira olish, ular asosida misol va masalalar yecha olish;	12,5	5
			100	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
-----	-----------------	-------	------------

1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumot va atamalarni to'g'ri tushunish, hodisa va jarayonlarning nomi hamda xususiyatlarini eslab qolish, matn, rasm yoki tajriba asosida zarur dalillarni aniqlay olish	50%
2.	Qo'llash	Bilim va tushunchalarni yangi vaziyatlarga moslashtirish, amaliy holatlarda qo'llash; grafik, jadval va sxemalarni tahlil qilish; ilmiy qonuniyatlarni masalalarda qo'llash hamda tajriba natijalaridan xulosa chiqarish	42%
3.	Mulohaza qilish	Hodisalar orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlab, o'z fikrini dalillar bilan asoslash, jarayon va hodisalarni taqqoslab farq va o'xshashliklarni ilmiy izohlash hamda mustaqil xulosa bildirish	8%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Hodisa yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test
5.	Y5	Mazmun yuzasidan qo'llashga oid "ha/yo'q" yoki "to'g'ri/ "noto'g'ri" shaklidagi yopiq test topshirig'i.

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 100 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi .

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

- 1 I.R.Asqarov, K.G‘opirov, D.Azamatova, Sh.Ganiyeva 7-sinf «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent — 2022
2. I.R.Asqarov, K.G‘opirov, D.Azamatova, Sh.Ganiyeva 7-sinf «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent — 2022
3. I.R.Asqarov, K.G‘opirov, N.X.To‘xtaboyev 8-sinf Toshkent «YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE» 2019.
4. I.R.Asqarov, K.G‘opirov, N.X.To‘xtaboyev 8-sinf Toshkent «YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE» 2019
5. I.R.Asqarov, K.G‘opirov, N.X. To‘xtaboyev 9-sinf Toshkent «O‘ZBEKISTON» 2019
6. I.R.Askarov, N.X.Tuxtabayev, K.G.Gapirov, класс-9, “Главная редакция ИПАК” “Sharq”, 2017.
7. I.Ismatov, D.Azamatova 10-sinf RTM yangi nashr Toshkent – 2022
8. I.Ismatov, D.Azamatova 10-sinf RTM yangi nashr Toshkent – 2022
- 9.S.Masharipov, A.Mutalibov, E.Murodov, H.Islomova. 11-sinf G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018
- 10.S.Masharipov, A.Mutalibov, E.Murodov, X.Islomova; klass-11, Издательско полиграфический творческий дом имени G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent – 2018
11. PISA: “Естественнонаучная грамотность” https://rikc.by/ru/PISA/3-ex_pisa.pdf
12. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash,
“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2019.
13. Anorganik kimyo nazariy asoslari.N.A. Parpiyev, H.R. Rahimov, A. G. Muftaxov, I BOB.